

**O'ZBEK TILIDA MUROJAAT SHAKLLARI VA MULOZAMAT-
MANZIRATNING SOTSIOLINGVISTIK KATEGORIYA SIFATIDA
VOQELANISHI**

Tursunova Dilorom Zafarjon qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi murojaat shakllari hamda mulozamat-manzirat (nutq odobi, xushmuomalalik birliklari) sotsiolingvistik kategoriya sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda murojaat shakllarining ijtimoiy omillar — yosh, jins, ijtimoiy maqom, yaqinlik darajasi va kommunikativ vaziyat bilan bog'liqligi ochib beriladi. Insonlar o'zaro muloqot jarayonida faqatgina fikr va hissiyotlarini ifodalash bilangina cheklanib qolmaydilar. Shu bilan birga, har bir suhbat ishtirokchisi turli vositalar orqali suhbatdoshiga nisbatan munosabatini bildiradi, jamiyatdagi o'ziga xos guruhga mansubligini namoyon etadi hamda muloqot jarayonida egallagan o'rnini belgilashda faol qatnashadi.

Kalit so'zlar. Murojaat shakllari, mulozamat, manzirat, sotsiolingvistika, nutq etikasi, hurmat kategoriyasi, kommunikatsiya, jamiyat, suhbatdosh.

Abstract. This article analyzes forms of address in the Uzbek language as well as politeness and etiquette expressions (speech etiquette and courteous units) as a sociolinguistic category. The study reveals the connection between forms of address and social factors such as age, gender, social status, degree of familiarity, and communicative context. In the process of communication, individuals do not limit themselves only to expressing their thoughts and emotions. At the same time, each participant uses various linguistic means to express their attitude toward the interlocutor, demonstrate their belonging to a particular social group, and actively participate in defining their role within the interaction.

Keywords. Forms of address, politeness, etiquette, sociolinguistics, speech ethics, category of respect, communication, society, interlocutor.

Аннотация. В данной статье анализируются формы обращения в узбекском языке, а также средства вежливости и речевого этикета как социолингвистическая категория. В исследовании раскрывается связь форм обращения с социальными факторами, такими как возраст, пол, социальный статус, степень близости и коммуникативная ситуация. В процессе общения

люди не ограничиваются лишь выражением своих мыслей и чувств. Вместе с тем каждый участник коммуникации с помощью различных языковых средств выражает своё отношение к собеседнику, демонстрирует свою принадлежность к определённой социальной группе и активно участвует в определении своей роли в процессе общения.

Ключевые слова. Формы обращения, вежливость, этикет, социолингвистика, речевая этика, категория уважения, коммуникация, общество, собеседник.

Kirish. Sotsiolingvistika til va jamiyat o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Til birliklari, ayniqsa murojaat shakllari va nutq etiketi elementlari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning bevosita aksidir. O'zbek tilida murojaat shakllari nafaqat nominativ birlik sifatida, balki ijtimoiy-madaniy axborotni yetkazuvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, murojaat shakllari kommunikativ jarayonda suhbatdoshlar o'rtasidagi ijtimoiy masofa, hurmat darajasi va rol munosabatlarini ifodalaydi. Sotsiolingvistika fanida murojat shakllari - bu kishi o'zi suhbat mobaynida suhbatdoshiga murojaat qilish uchun qo'llaydigan so'zlardir. Turli oilaga mansub tillarda turli xil murojaat shakllari - murojaat so'zlari uchraydi va ular til va jamiyatning uzviyligini ifodalaydi. Florian Coulmas ta'kidlaganidek, "so'zlovchining muloyimligi va uni ifodalash usullari o'rtasidagi munosabat barcha tillar va muloqot ishtirokchilari uchun bir xil emas"[1].

Olimlar Filipsten va Huspekning ta'rifi bilan aytganda, murojaat shakllarini o'rganish "sotsiolingvistikaning eng muhim muammosi" sanaladi[2]. Murojaat shakllari va ularning ijtimoiy munosabatlarni ifodalashdagi o'rniga bag'ishlangan eng klassik namunaga aylangan va ulkan ahamiyatga ega bo'lgan ilk tadqiqot 1960-yilda Broun va Gilman tomonidan nashr qilingan. Broun va uning hamkasblari (Braun va Gilman 1960; Braun va Ford, 1961) xulosasiga ko'ra, murojaat shakllari eng avvalo so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatga ko'ra tanlanadi.

O'zbek madaniyatida yoshi katta insonlarni ismi bilan chaqirish odobsizlik hisoblanadi. Shu sababli, murojaat qilishda maxsus hurmat ifodalovchi birliklardan foydalaniladi. Masalan, o'qituvchilarga "ustoz" deb murojaat qilinadi; erkak qarindoshlarga nisbatan "amaki", "tog'a", "aka", ayollarga esa "opa", "xola" kabi so'zlar qo'llaniladi. Ota-onaga nisbatan esa "buvi" va "bobo" kabi hurmat ifodalovchi birliklar iishlatiladi. Boshqa hollarda ham, hatto odamlar bir-birini yaxshi tanimasalar ham, yoshi katta ayollarga "opa", erkaklarga esa "aka" deb murojaat qilish orqali

hurmat ifodalanadi. Masalan, “Dilnoza opa” yoki “Anvar aka” kabi shakllar keng qoʻllaniladi.

Oʻzbek tilida murojaat shakllari quyidagi omillarga bogʻliq:

- ijtimoiy ierarxiya (ustoz–shogird, rahbar–xodim);
- yosh farqi (aka, opa, uka);
- qarindoshlik munosabatlari;

“Onamning jahli chiqqanini kamdan kam koʻrardim. Ammo bu gal juda achchiqlandi. Opamnikiga ketayotgan edik” [3].

- rasmiy va norasmiy muloqot;
- gender omili

Masalan: “*aka*”, “*opa*” — hurmat va yaqinlikni bildiradi; “*janob*”, “*xonim*” — rasmiy murojaat; “*-jon*”, “*-oy*” qoʻshimchalari — emotsional iliqlik ifodasi. Mulozamat va manzirat tushunchasi.

Mulozamat (politeness) — bu nutqda hurmat, odob va xushmuomalalikni ifodalovchi vositalar tizimidir. Manzirat esa suhbatdoshga nisbatan hurmat-ehtiromni ifodalovchi lingvistik va noverbal birliklarni oʻz ichiga oladi. Oʻzbek nutq madaniyatida mulozamat quyidagi shakllarda namoyon boʻladi:

Salomlashish:

- *Assalomu alaykum;*
- *Assalomu alaykum, buvajon, - deb salom berdi.*
- *Vaalaykum assalom, mullo boʻling, tasaddiq, - dedi Ermon buva salmoqlab [3].*

iltimos shakllari: *iltimos, marhamat;*

minnatdorchilik: *rahmat;*

uzr: *kechirasiz.*

Murojaat shakllari va mulozamat birliklari quyidagi sotsiolingvistik funksiyalarni bajaradi.

Ijtimoiy identifikatsiya: Shaxsning jamiyatdagi oʻrnini bildiradi (masalan, “ustoz”, “domla”).

Ijtimoiy masofani belgilash: “sen” va “siz” orqali yaqinlik yoki masofa ifodalanadi.

O‘zbek tilida murojaat shakllari ko‘pincha hurmat va iliqlikni aks ettiradi. Madaniy qadriyatlarni aks ettirish. Til orqali milliy mentalitet va odob me‘yorlari namoyon bo‘ladi.

Lingvopragmatik jihat: Murojaat shakllari faqat grammatik birlik emas, balki pragmatik vosita hamdir. Ular: nutqning maqsadini aniqlaydi; suhbatdoshga ta’sir qiladi; kommunikativ strategiyani belgilaydi. Masalan, bir xil mazmun turli murojaat shakllari bilan turlicha ta’sir ko‘rsatadi: “*Kel!*” — buyruq (qo‘polroq).

“*Iltilimos, keling*” — muloyim, hurmatli shakl. Globallashuv va tillararo aloqa natijasida o‘zbek tilida yangi murojaat shakllari paydo bo‘lmoqda:

rus tilidan kirib kelgan: *товарищ, господин*;

inglizcha ta’sir: *mister, miss*.

Bu jarayonlar tilning dinamik tabiatini ko‘rsatadi va yangi sotsiolingvistik qatlamlarni yuzaga keltiradi.

Xulosa. O‘zbek tilidagi murojaat shakllari va mulozamat-manzirat birliklari sotsiolingvistikaning muhim kategoriyalaridan biridir. Ular jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi, kommunikativ jarayonni tartibga soladi, milliy madaniyat va mentalitetni ifodalaydi. Shuningdek, mulozamat va manzirat elementlari nutqda iliqlik, hurmat va odobni ifodalash orqali kommunikativ muvozanatni ta’minlaydi. Suhbat jarayonida har bir ishtirokchi o‘z fikr va tuyg‘ularini yetkazish bilan birga, til vositalari orqali jamiyatdagi o‘z o‘rnini va suhbatdoshga nisbatan munosabatini ham belgilaydi. Murojaat shakllari va nutq etiketi birliklarini o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki ijtimoiy fanlar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Versehueren, J. 2000. Understanding Pragmatics [M] Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press & London: Edward Arnold Publishers Ltd.
2. Очиллов, О. М. (2016). К ВОПРОСУ О БЭ, СЭН И СИМВОЛЕ В КИТАЙСКОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ. In Приоритеты мировой науки: эксперимент и научная дискуссия.
3. Hoshimov, O‘. Dunyoning ishlari/qissa/«Abadiy barhayot asarlar» turkumi. - T. :“Ilm-ziyozakovat” nashriyoti, 2019.

4..Brown, P., & Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press, 1987.

5..Rahimov, S. Lingvopragmatika asoslari. Tashkent: Fan, 2010.

6.Yusupova, M. O'zbek nutqiy etiketi. Tashkent: Akademnashr, 2015.